



**1. Berilgan gaplardagi soʻz qoʻllash bilan bogʻliq xatolikni toping. Togʻ choʻqqilaridagi qor zarralari quyosh nurida oltindek toblanar edi.**

- A) Togʻ choʻqqilaridagi
- B) qor zarralari
- C) oltindek toblanar edi.
- D) quyosh nurida

**2. Grekchadan tarjima qilinganda “koʻchirish” maʼnosini bildiradi. Ushbu maʼno koʻchishiga mos keladigan gaplarni aniqlang.**

- A) Ozoda daryo yoqasida oʻz orzularini oʻylab oʻtirar edi.
- B) Dilshodga doʻsti oyogʻini yechib kirishini alohida taʼkidladi.
- C) Umidaning singan qoʻliga notoʻgʻri tashxis qoʻyilgan edi.
- D) Ota-onasini sogʻinib yurgan kelinchak ularni koʻrishi bilan yigʻlab yubordi.

**3. Quyida berilgan qoʻshma gaplarning qaysi birida maʼno-mazmun bogʻlanishi buzilgan.**

- A) Osmonda birdan qora bulut paydo boʻldi-yu, yomgʻir yogʻdi.
- B) Asta-sekinlik bilan kunlar isiy boshladi, shuning uchun bogʻdagi ishlar ham koʻpaydi.
- C) Daraxtlarning zaʼfaron koʻrinishi dilni xushlaydi-yu, kurtak yozgan novdalar kishiga zavq bagʻishlaydi.
- B) Qoʻgʻirchoq oʻynab oʻtirgan Zulfizarning koʻzlari stol ustidagi shirinliklarga qadalgan edi.

**4. Quyida berilgan qaysi soʻzlarning tarkibidagi jarangli undosh tovushni jarangsiz juftiga almashtirganda soʻz maʼnosida oʻzgarish sodir boʻladi.**

- A) kaft, bor, dur

- B) tuz, bob, burj
- C) dard, kift, garmdori
- D) zo‘r, tol, shol

**5. Grammatik xato qo‘llangan qoida berilgan javobni belgilang.**

- A) Bir bo‘g‘inli so‘zlar, qisqartma so‘zlar satrdan satrga ko‘chiriladi.
- B) Majhul va o‘zlik nisbatini hosil qiluvchi qo‘shimchalar shakldosh bo‘la oladi.
- C) Shart mayli qo‘shimchasi –sa ergash gapning kesimi tarkibida keladi.
- D) Hokim so‘zi otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan birikma otli birikma hisoblanadi.

**6. *Sadoqatlilardan* sadoqatsizlar, *vafolilardan* bevafoalar ko‘p edi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.**

- A) faqat til oldi undoshlaridan iborat bo‘lgan so‘z
- B) otlashgan sifat to‘ldiruvchi vazifasini bajargan
- C) ajratilgan so‘zlar yasama emas
- D) ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan so‘zlar

**7. Imlo qoidalariga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini belgilang.**

- A) extimol, balki, istedod
- B) xayot, vakuum, ixtisod
- C) hasharot, matbaa, daraxt
- D) xayol, shuur, muomala

**8. Ajratilgan bo‘lak qo‘llanmagan gapni aniqlang?**

- A) Uni, Ozodani ko‘rgani bordik.
- B) Hovlida, olma daraxtining ostida mushukcham o‘ynab yuribdi.
- C) Mening fikrimcha, siz bu yil juda yuqori natijalarga erishasiz.
- D) Avazni, do‘stimni bog‘da ko‘rib qoldim.

**9. Bo'yog'i o'chgan darvozadan bolakay yig'lab kirib keldi. Berilgan gapda qanday tovush o'zgarishlari uchraydi?**

- A) tovush orttirilishi va tushishi
- B) tovush tushishi va almashinishi
- C) faqat tovush tushishi
- D) tovush almashinishi va orttirilishi

**10. Iboralar (frazologik birikma) berilgan javobni belgilang.**

- A) qulog'iga aytmoq
- B) shirin so'z
- C) yetti o'lchab bir kes
- D) qulog'idan kun ko'rinadi

**11. Gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro o'rin almashinishi qanday hodisa hisoblanadi?**

- A) inversiya hodisasi
- B) integratsiya hodisasi
- C) ohangdoshlik hodisasi
- D) otlashish hodisasi

**12. Bog'langan qo'shma gap berilgan javobni belgilang.**

- A) Karim bobo farzandlariga nasihat qilar edi-yu, ular bunday gaplarga e'tibor bermas edilar.
- B) Butun maktab jamoasi tog'ga sayrga chiqdilar.
- C) Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va o'z o'rnida bajar.
- D) Nazokat tuni bilan tikish qildi, tongda xamir qordi.

**13. Keltirilgan kitoblar sinflarga teng taqsimlansin. Berilgan gapning kesimi qaysi nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan?**

- A) aniq nisbat

- B) majhul nisbat
- C) o‘zlik nisbat
- D) birgalik nisbat

**14. Rejada keltirilgan barcha vazifalarni bajarish kerak. Ushbu gap ega ishtirokiga ko‘ra qanday gap hisoblanadi?**

- A) so‘z gap
- B) shaxsi ma’lum gap
- C) shaxsi noma’lum gap
- D) egasi yashiringan gap

**15. Nuqatalar o‘rniga faqat unli tovushlar qo‘yiladigan so‘zlar berilgan qatorni belgilang.**

- A) qat...iq, ja...ji
- B) istehzo...muz, taas...urot
- C) matba..., mudofa...
- D) u...daburon, insho...t

**16. Qaysi so‘zda urg‘u so‘z ma’nosini farqlashga xizmat qilgan?**

- A) kelma
- B) soya
- C) tok
- D) dehqon

**17. Shevaga oid so‘z berilgan javobni belgilang.**

- A) chelak
- B) kelin oyi
- C) yumurta
- D) xonadon

**18. Berilgan gaplarning qaysi birining kesimi sodda kesim hisoblanadi?**

- A) Doniyor bobo bozordan handalak sotib oldi.
- B) Bolakayning oldidan qo‘qqisdan it chiqib qoldi.
- C) Bolajonim sen, albatta, yaxshi o‘qishing kerak.
- D) Shahnoza senga yana tayinlayabman, ertalab vaqtlitiroq tur.

**19. Uyushiq bo‘laklar, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar qaysi yordamchi so‘z turkumi orqali bog‘lanadi?**

- A) Modal so‘zlar
- B) Ko‘makchi
- C) Yuklama
- D) Bog‘lovchi

**20. Tilshunoslikning qaysi bo‘limida tinish belgilari o‘rganiladi?**

- A) Morfemika
- B) Stilistika
- C) Punktuatsiya
- D) Etimologiya